

AXBOROT HURUJLARIGA QARSHI MA’NAVIY-AXLOQIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA OILA PSIXOLOGIYASINING O‘RNI. GENDER STEREOTIPLARI: FARZAND TARBIYASI VA IJTIMOIIY ONGGA TA’SIRI

To‘lanova Maxliyo Murotali qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi
Xoldaraliyeva Shahlo Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti
307-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19413262>

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot hurujlarining mazmun-mohiyati, ularning yoshlar ongiga ko‘rsatadigan psixologik va ijtimoiy ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ma’naviy-axloqiy immunitet tushunchasining nazariy asoslari yoritilib, uni shakllantirishda oila psixologiyasining o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, gender stereotiplarining farzand tarbiyasi, shaxsning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy ong shakllanishiga ta’siri kompleks yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy nazorat mexanizmlari va pedagogik hamkorlik masalalari keng yoritilib, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar. axborot hurujlari, ma’naviy-axloqiy immunitet, oila psixologiyasi, gender stereotiplari, ijtimoiy ong, globallashuv, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, shaxs ijtimoiylashuvi, tarbiya.

Аннотация. В данной статье на научной основе анализируется сущность информационных атак в условиях глобализации и цифровой трансформации, а также их психологическое и социальное влияние на сознание молодежи. Освещаются теоретические основы понятия духовно-нравственного иммунитета и раскрывается роль психологии семьи в его формировании. Кроме того, на основе комплексного подхода рассматривается влияние гендерных стереотипов на воспитание детей, социализацию личности и формирование общественного сознания. В ходе исследования широко освещаются вопросы медиаграмотности, критического мышления, механизмов общественного контроля и педагогического сотрудничества, а также разрабатываются практические предложения и рекомендации.

Ключевые слова: информационные атаки, духовно-нравственный иммунитет, психология семьи, гендерные стереотипы, общественное сознание, глобализация, медиаграмотность, критическое мышление, социализация личности, воспитание.

Abstract. This article analyzes the essence of information attacks in the context of globalization and digital transformation, as well as their psychological and social impact on the consciousness of young people. The theoretical foundations of the concept of spiritual and moral immunity are highlighted, and the role of family psychology in its formation is revealed. In addition, the influence of gender stereotypes on child upbringing, personality socialization, and the formation of social consciousness is examined through a comprehensive approach. During the research, issues such as media literacy, critical thinking, mechanisms of social control, and pedagogical cooperation are widely discussed, and practical suggestions and recommendations are developed.

Keywords: information attacks, spiritual and moral immunity, family psychology, gender stereotypes, social consciousness, globalization, media literacy, critical thinking, personality socialization, upbringing

Kirish .Bugungi kunda axborot makoni jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylandi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida axborot almashinuvi tezlashdi, biroq shu bilan birga turli mafkuraviy tahdidlar, manipulyativ xabarlar va soxta ma’lumotlar ham keng tarqalmoqda. Ayniqsa, yoshlar axborot hurujlariga nisbatan eng ta’sirchan qatlam hisoblanadi[1].**Ma’naviy-axloqiy immunitet** – bu shaxsning zararli axborotlarni tanib olish, tahlil qilish va ularga nisbatan ongli qarshilik ko’rsatish qobiliyatidir. Bu sifatlar avvalo oilada shakllanadi. Oila – jamiyatning birlamchi ijtimoiy instituti bo’lib, unda shaxsning qadriyatlarini, dunyoqarashi va axloqiy mezonlari rivojlanadi[2].

Ma’naviy-axloqiy immunitetning nazariy asoslari. Psixologik nuqtai nazardan immunitet tushunchasi himoyalaniş mexanizmini anglatadi. Ijtimoiy-ma’naviy kontekstda esa bu shaxsning mustaqil fikrlashi, axloqiy barqarorligi va ijtimoiy mas’uliyat hissi bilan bog’liqdir. Olimlar ma’naviy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy o’rganish nazariyasi, kognitiv rivojlanish konsepsiyasi va ijtimoiy identifikatsiya nazariyasiga tayanadilar. Oilada shakllangan psixologik muhit farzandning emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko’rsatadi[3].Mehr-oqibat, hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlar bolada o’ziga ishonch va mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

Ota-onaning shaxsiy namunasi tarbiyada eng kuchli omillardan biridir. Farzandlar ko’proq kuzatish va taqlid qilish orqali o’rganadi. Shu bois ota-onaning axborotdan foydalanish madaniyati, muomala uslubi va ijtimoiy faolligi bolaga bevosita ta’sir qiladi.

Gender stereotiplari – jamiyatda erkak va ayollarga nisbatan shakllangan an’anaviy qarashlar majmuidir. Bunday stereotiplar ko’pincha farzandning qiziqishlari va salohiyatini cheklaydi[4]. Masalan, kasb tanlashda yoki ijtimoiy faollikda jinsga oid cheklovlar qo’yilishi shaxs rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin

Zamonaviy yondashuvlar gender tengligini ta’minlash, har bir shaxsning individual qobiliyatini rivojlantirishni qo’llab-quvvatlaydi. Oilada tenglik va adolat tamoyillarining ustuvorligi sog’lom ijtimoiy ongini shakllantiradi. Media savodxonlik yoshlarni axborot hurujlaridan himoya qilishning samarali vositasidir. Bu ko’nikma axborot manbalarini tahlil qilish, fakt va fikrni ajrata olish hamda soxta xabarlarini aniqlashni o’z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali yoshlar har qanday ma’lumotni chuqur tahlil qiladi, uning ishonchliligini tekshiradi va mustaqil xulosa chiqaradi.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, axborot hurujlariga qarshi samarali kurashish uchun oilada sog’lom psixologik muhitni yaratish, media savodxonlikni rivojlantirish va gender tenglik tamoyillarini mustahkamlash zarur.

Amaliy takliflar:

1. Ota-onalar uchun psixologik va pedagogik treninglar tashkil etish.
2. Ta’lim muassasalarida media savodxonlik fanini kengaytirish.
3. Gender stereotiplariga qarshi ma’rifiy dasturlar ishlab chiqish.
4. Oila va maktab hamkorligini mustahkamlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
2. G’oziev E. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2012.
3. Musurmonova O. Oila psixologiyasi. Toshkent, 2015.
4. To’xtaxodjayeva M. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2010.